TA'LIM XIZMATLARI KO’RSATISH TO'G'RISIDAGI OMMAVIY OFERTA

№ _____

«___» _____ 20__-yil

"NAJOT TA’LIM MARKAZI" direktori A.B.Adhamjonov (bundan keyin “IJROCHI” deb yuritiladi) mazkur ommaviy oferta (bundan keyin “Oferta”) orqali O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq Ofertani aksept qilgan har qanday jismoniy shaxsga (bundan keyin “BUYURTMACHI” deb yuritiladi) quyidagi shartlarda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma tuzishni taklif qiladi:

1. OFERTA PREDMETI VA UNI AKSEPT QILISH TARTIBI

1.1. Ijrochi Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan tanlangan kurs (yo‘nalish) bo’yicha ta'lim xizmatlarini (bundan keyin matnda xizmatlar deb yuritiladi) taqdim etadi va Buyurtmachi xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Ijrochi tomonidan o‘qitiladigan kurslar ro‘yxati, har bir kursning nomi, davomiyligi (o‘quv oylari soni), bir o‘quv oyidagi darslar soni, bir darsning davomiyligi, mazkur kurs uchun mavjud to‘lov uslublari (oyma-oy, ikkiga bo‘lib yoki bittada to‘lov), har bir to‘lov uslubi bo‘yicha kurs narxi, shuningdek kursga xos qo‘shimcha imtiyozlar (bundan keyin birgalikda “Kurs shartlari”) Ijrochining rasmiy veb-saytida, mobil ilovasida va boshqa rasmiy platformalarida, shu jumladan Buyurtmachining shaxsiy kabinetida e’lon qilinadi. Kurs narxlari mazkur Ofertada ko‘rsatilmaydi va Ijrochining veb-sayti hamda platformalarida e’lon qilingan Kurs shartlari orqali belgilanadi.

1.3. Buyurtmachi tanlagan kurs bo‘yicha Oferta aksept qilingan paytda amalda bo‘lgan Kurs shartlari Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Buyurtmachining shaxsiy kabinetida, SMS yoki elektron pochta orqali qayd etiladi. Kurs shartlari va mazkur Oferta qoidalari o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, kurs narxi, davomiyligi, to‘lov uslublari va qo‘shimcha imtiyozlar qismida Kurs shartlari, qolgan barcha masalalarda mazkur Oferta qoidalari qo‘llaniladi.

1.4. Mazkur Oferta O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi va Ijrochining rasmiy veb-saytida, mobil ilovasida va filiallarida e’lon qilinadi. Oferta aksept qilingan paytdan boshlab Ijrochi va Buyurtmachi o‘rtasida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma (bundan keyin “Shartnoma”) tuzilgan hisoblanadi. Mazkur Ofertada “shartnoma” so‘zi Oferta aksept qilinishi natijasida tuzilgan Shartnomani anglatadi.

1.5. Buyurtmachi quyidagi harakatlardan birini amalga oshirish orqali Ofertani aksept qiladi (Fuqarolik kodeksining 370-moddasi): Ijrochining veb-sayti, mobil ilovasi yoki filialida ro‘yxatdan o‘tib, kursni tanlash va shaxsga doir ma’lumotlarini (F.I.SH., pasport ma’lumotlari, JSHSHIR, yashash manzili, telefon raqami) taqdim etish hamda Oferta shartlariga roziligini elektron shaklda (tegishli belgini qo‘yish, SMS-kod yoki elektron raqamli imzo orqali) tasdiqlash yoxud tanlangan kurs uchun birinchi to‘lovni (to‘liq yoki qisman) amalga oshirish.

1.6. Aksept to‘liq va so‘zsiz bo‘lishi lozim. Ofertani aksept qilish orqali Buyurtmachi uning barcha shartlari, shu jumladan tanlangan kurs bo‘yicha Ijrochining veb-sayti va platformalarida e’lon qilingan Kurs shartlari va narxlar bilan tanishib chiqqanini va ularni to‘liq qabul qilganini tasdiqlaydi. Ofertani aksept qilish Shartnomaning yozma shaklda tuzilganiga tenglashtiriladi.

1.7. Aksept qilingan har bir Shartnomaga Ijrochining axborot tizimida raqam, Buyurtmachiga esa identifikatsiya raqami (ID) beriladi va bu haqida Buyurtmachiga SMS, elektron pochta yoki shaxsiy kabinet orqali xabar yuboriladi. Ro‘yxatdan o‘tishda Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va ularning to‘g‘riligi uchun Buyurtmachi javobgar bo‘ladi.

1.8. 14 yoshga to‘lmagan shaxs uchun Oferta uning qonuniy vakili (ota-onasi, farzandlikka oluvchisi yoki vasiysi) tomonidan, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxs tomonidan esa qonuniy vakilining roziligi bilan aksept qilinadi. Bunday hollarda qonuniy vakil ro‘yxatdan o‘tishda mas’ul shaxs sifatida o‘z ma’lumotlarini ko‘rsatadi.

1.9. Ofertani aksept qilish orqali Buyurtmachi (uning qonuniy vakili) “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq o‘z shaxsga doir ma’lumotlariga Shartnomani bajarish hamda ushbu Ofertaning 2.1.18-bandida nazarda tutilgan maqsadlarda ishlov berilishiga rozilik bildiradi.

2. IJROCHINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

2.1. Ijrochining huquqlari:

2.1.1. Guruhlarga o’z imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'qituvchi biriktirish. O’quvchilar o'qituvchi tanlash imkoniyatiga ega emas;

2.1.2. Butun o'qish davrida, o'qish dasturining davomiyligini saqlagan holda, o'qituvchilar tarkibiga o'zgartirish kiritish;

2.1.3. Qog'oz, programma va elektron shakldagi o’quv dasturlar hamda mualliflik huquqi asosida ishlab chiqilgan qo’llanma-namunalarga intellektual mulk obyekti sifatida mulkiy huquqlarga ega bo'lish;

2.1.4. Buyurtmachi tomonidan o'tkazib yuborilgan darslarning o'rnini qoplamaslik;

2.1.5. Agar darslar uchun to’lov o'z vaqtida to'lanmagan bo'lsa, o’quvchini darslardan chetlashtirish. To'lov o‘z vaqtida to‘lanmagan sababli darsdan chiqarilgan o'quvchi to'lovni amalga oshirganda boshqa guruhda o'qishni davom ettiradi. Yoki o'quvchi 4 (to‘rt) kalendar kuni ichida o‘z guruhida qolishni so’rab murojaat qilishi mumkin, bunda u darslardan chetlashtirilgan muddat davomida qoldirilgan darslarni onlayn tarzda yoki videodarslar orqali mustaqil o'zlashtirib olish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Mazkur holatda o‘quvchi o'z guruhiga qayta qo'shilishi mumkin. Bunday imkoniyat videodarslar mavjud bo‘lgan darslarga tegishli. Bu holatda videodarslarning qiymati oflayn darslarning qiymatiga tenglashtiriladi;

2.1.6. O'quvchining bilimi va o’zlashtirishini muntazam ravishda hisobga olish, nazorat qilish va voyaga yetmagan o'quvchilarning ota-onalarini (qonuniy vakillarini) o‘quvchining natijalari haqida SMS, qo’ng’iroq yoki shaxsiy kabinet orqali xabardor qilish;

2.1.7. O’zlashtirish darajasi qoniqarsiz, o'qishga ishtiyoqi yo'q o’quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlar o'tkazish;

2.1.8. Bir o’quv oyi davomida uy vazifa bajarmaslik holati 60% yoki darsda qatnashmaslik holati 50% dan oshsa, o‘quv oyi yakuniga yetgach o‘quvchini mazkur guruhda o‘qishni davom ettirish huquqidan mahrum etish. Shu bilan birga, o’quvchi imtihonda qatnashishi va imtihon javobini bilishga haqli bo‘ladi, lekin imtihon natijasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar inobatga olinmaydi. Shuningdek, o‘quvchi mazkur oy uchun to‘lov qilib, qaytadan o‘qish huquqini saqlab qoladi;

2.1.9. Oraliq nazorat, oraliq saralash va yakuniy imtihonlarni baholash mezonlarini, shakllarini, tartibini va davomiyligini mustaqil ravishda tanlash, hamda dastur boshlangach unga o’zgartirish kiritish;

2.1.10. Darslar jadvalini buyurtmachilarga bildirishnoma orqali, darslar boshlanishidan 1 (bir) ish kunidan kechiktirmasdan, bir tomonlama o'zgartirish;

2.1.11. Guruhdagi o’quvchilar soni 12 (o’n ikki) yoki 11 (o’n bir) kishi qolsa, ijrochi buyurtmachi bilan o'zaro kelishgan holda, guruhni ayni shu yo’nalishdagi boshqa guruhga butunlay qo’shib yuborish yoki qismlarga bo’lib taqsimlab yuborish;

2.1.12. Guruhdagi o’quvchilar soni 10 (o’n) va undan kam kishi bo'lsa, guruhni vaqtincha muzlatish yoki tarqatib yuborish va buyurtmachiga boshqa guruhlarda o’qishni davom ettirishning muqobil variantlarini taklif qilish;

2.1.13. Ta'til, O'zbekistonda nishonlanadigan bayramlar va boshqa shunga o'xshash sabablarga ko'ra (masalan, binoga kirish taqiqlangan bo'lsa) o’tilmagan darslar to'lovini keyingi darslar to’loviga o’tkazish orqali darslarni vaqtincha to'xtatib turish huquqini saqlab qolish. Bunday holda, o'tilmagan darslarning vaqti buyurtmachi bilan kelishilgan holda belgilanadi;

2.1.14. Agar obyektiv zarurat tug'ilsa, mashg'ulot o’tiladigan filialni o'zgartirish (ijara shartlari yoki muddatining o'zgartirilishi, ijaraga olingan bino-xonalarni ta'mirlash, bo’sh xona yoki o’qituvchi yo’qligi va boshqa sabablar tufayli);

2.1.15. Kurs davomida saralash imtihonlarini o’tkazish, imtihondan yiqilgan o’quvchilar bilan avvalgi oyni yoki oylarni qayta o’qitish uchun guruhlar tashkil qilish yoki o'quvchi bilan kelishgan holda uni boshqa guruhga qo'shish;

2.1.16. Yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o’ta olmagan o’quvchilarga bitirganligi haqida sertifikat emas, balki dasturni tinglaganligi haqida ma’lumotnoma berish;

2.1.17. Guruhning darslari qaysi filialda bo’lib o’tishini mustaqil belgilash. Bu holatda Buyurtmachiga Ijrochi tomonidan xizmat ko'rsatilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy manzillar haqida shartnoma tuzish paytida ma'lumot berilgan bo'lishi shart;

2.1.18. Marketing maqsadida Buyurtmachining ism-familiyasi, yoshi, jinsi va ish joyi nomi kabi ma’lumotlardan foydalanish.

2.2. IJROCHINING MAJBURIYATLARI:

2.2.1. Buyurtmachini o’quv dasturi asosida sifatli ta’lim bilan ta’minlash;

2.2.2. Ta’lim xizmatlarining o’quv dasturi asosida o’z vaqtida ko’rsatilishini ta’minlash;

2.2.3. Ta’lim xizmatlari ko’rsatilish jarayoniga mas’uliyat bilan yondashish;

2.2.4. Buyurtmachi yoki uning nomidan murojaat qiladigan vakillarga hurmat bilan munosabatda bo’lish;

2.2.5. Ta’lim xizmatlari ijrochi tomonidan dars jadvalida belgilangan soatlarda ko’rsatilishini ta’minlash. Dars vaqti 20 daqiqagacha kechikib boshlanishi yoki tugatilishi tomonlar o'rtasida moliyaviy majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi. Ijrochi ta'lim dasturining kamchiliksiz o'tilishini o'z zimmasiga oladi. Ammo buyurtmachi tomonidan talab qilingan hollarda Ijrochi kechikib boshlangan darslarni o’sha dars kunida yoki jamlagan holda boshqa kuni qoplab berishga majbur;

2.2.6. Buyurtmachi tomonidan darslarga sog’lig’iga bog’liq jiddiy sabab tufayli qatnashmaganlikni tasdiqlovchi hujjat (tibbiy ma'lumotnoma) taqdim etilganda, buyurtmachiga darslarni onlayn tarzda

yoki videodarslar orqali o’zlashtirishga ruxsat berish. Bu holatda onlayn/videodarslarning qiymati oflayn darslarning qiymatiga tenglashtiriladi. Darsda o’tilgan mavzuning o’ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda videodars yozishning zarurati yoki imkoniyati bo’lmaganligi sababli yozib olingan videodarslar mavjud bo’lmasa, Buyurtmachi qoldirilgan darslarni mustaqil o‘zlashtirib olish mas’uliyatini o’z zimmasiga oladi;

2.2.7. Ijrochiga tegishli binolar hududida qorovul xizmati va doimiy videokuzatuv amaliyoti orqali buyurtmachining xavfsizligini ta’minlash choralarini ko’rish;

2.2.8. Ijrochiga tegishli binolar hududida mast qiluvchi yoki tamaki mahsulotlarining iste’mol qilinmasligini ta’minlash choralarini ko’rish;

2.2.9. Kurs shartlarini, shu jumladan kurs narxlari va to‘lov uslublarini o‘zining rasmiy veb-sayti, mobil ilovasi va boshqa rasmiy platformalarida ochiq va tushunarli tarzda e’lon qilish hamda Buyurtmachiga Oferta aksept qilingan paytda amalda bo‘lgan Kurs shartlarini shaxsiy kabinet yoki boshqa elektron vosita orqali taqdim etish.

3. BUYURTMACHINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachi huquqlari:

3.1.1. Ta'lim jarayonida "co-working" hududlaridan 4.1.2-bandda ko'rsatilgan tartibda imtiyozli ravishda foydalanish;

3.1.2. O'quv xonalaridan va jihozlardan tegishli dars jadvaliga ko'ra bepul foydalanish;

3.1.3. Ijrochi hududida joylashgan kutubxona va u yerdagi o'quv materiallaridan bepul foydalanish. Kutubxona mavjudligi filialdan-filialga qarab farqlanishi mumkin;

3.1.4. Ushbu Ofertaning 5-bobiga muvofiq ta’lim xizmatlari uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishning iloji bo'lmasa, filial menejeriga murojaat qilgan holda 7 ish kunidan kechiktirmasdan amalga oshirish sharti bilan qismlarga bo'lib to’lash imkoniyatini qo'lga kiritish. Kurs shartlarida ushbu huquqdan foydalanish uchun qo‘shimcha shartlar (muayyan o‘quv oylarini muvaffaqiyatli tugatganlik, foydalanishlar soni va boshqalar) belgilanishi mumkin;

3.1.5. Agar o'qitish jarayonida ijrochining aybi bilan bir yoki bir nechta mashg'ulotlar bekor qilingan bo'lsa, ushbu mashg'ulotlarni o'tkazishni talab qilish;

3.1.6. Buyurtmachi uzrli sabablarga ko'ra qoldirgan darslari uchun ushbu darajadagi boshqa guruhlarda oyiga Kurs shartlarida belgilangan miqdorda, agar bunday miqdor belgilanmagan bo‘lsa, 2 (ikki) tadan ko'p bo'lmagan adadda qo'shimcha darslar olish. Bunda Ijrochi qo’shimcha darslarning aniq jadvalini o’z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi;

3.1.7. Buyurtmachining xohishiga ko'ra yoki Ijrochining imkoniyati cheklanganligi sababli 3.1.6-bandda ko'rsatilgan huquqdan foydalanishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda qoldirilgan darslarni videodarslar orqali o’zlashtirib olish. Videodarslarning qiymati oflayn darslarning qiymatiga tenglashtiriladi;

3.1.8. Uzrli sababga ko'ra surunkali dars qoldirish ehtiyoji paydo bo'lganda darslarni vaqtincha muzlatib turish talabi bilan filial menejeriga murojaat qilish. Filial menejeri holatni o'rganib murojaatni qondirishi yoki uni rad etishi mumkin;

3.1.9. Buyurtmachi 6.3.4-bandda ko’rsatilgan sabablardan biriga ko’ra guruhdan chetlatilgach, boshqa guruhda qayta o’qish istagini bildirsa va o’sha guruhda o’qitilayotgan kurs narxi

Buyurtmachining shartnomasiga nisbatan kamroq summani tashkil qilsa, mavjud shartnomani bekor qilib, arzon narxdagi yangi shartnoma tuzish bo’yicha murojaat qilish;

3.1.10. Buyurtmachi 6.3.4-bandda ko’rsatilgan sabablardan biriga ko’ra guruhdan chetlatilgach, boshqa guruhda qayta o’qish istagini bildirsa va o’sha guruhda o’qitilayotgan kurs narxi Buyurtmachining shartnomasiga nisbatan ko’proq summani tashkil qilsa, mavjud shartnoma shartlariga ko’ra to’lov qilishni davom ettirish.

3.2. BUYURTMACHI MAJBURIYATLARI:

3.2.1. Ijrochi tomonidan ko’rsatilayotgan xizmatlarga mas’uliyat bilan yondashish;

3.2.2. Ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovni o‘zi tanlagan to‘lov uslubiga muvofiq 5.2-bandda belgilangan muddatlarda amalga oshirish;

3.2.3. Ijrochining pedagogik jamoasi tomonidan berilgan darslar bo'yicha topshiriqlarni, uyga vazifalarni, amaliy vazifalarni va amaliyot ishlarini to'liq va o’z vaqtida bajarish;

3.2.4. Ijrochining pedagogik, texnik va boshqa xodimlariga hurmatda bo’lish;

3.2.5. O’quv markazida dars vaqtida, xonada yoki co-working hududlarida darslarga kerak bo’lmagan videolar, har xil rasmlar, o’yin o’ynash kabi amallarni bajarmaslik. Agar bunday holat bir marta aniqlansa, buyurtmachining bir hafta davomida co-working hududidan foydalanishi cheklanadi. Ikki marotaba takrorlansa, bu huquqdan bir oy muddatga mahrum etiladi;

3.2.6. Ijrochini darsga kelmaganligining asosli sabablari to'g'risida xabardor qilish va surunkali (ketma-ket 3 tadan ko'p) dars qoldirilganda ularni tasdiqlovchi hujjatni o'z vaqtida taqdim etish;

3.2.7. Ijrochi mol-mulkiga g'amxo'rlik qilish va uning mulkiga yetkazilgan moddiy zararni qoplash;

3.2.8. Ijrochiga tegishli hududga mast qiluvchi mahsulot ichgan yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilgan holda kelmaslik, markaz hududi va uning 50 metr radiusida tamaki mahsulotlarini chekmaslik;

3.2.9. Ijrochining ichki tartib qoidalariga rioya qilish, filial hududida joylashgan shaxsni aniqlash (FaceID, turniket va h.k.) uskunasidan o‘tish qoidalariga amal qilish, dars vaqtida mobil aloqa vositalaridan foydalanmaslik;

3.2.10. O'qish davrida ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan ta’lim yoki ish safarlariga chiqmaslik;

3.2.11. Ta’lim markazidagi xona va jihozlardan o‘qishdan tashqari boshqa maqsadlarda foydalanmaslik;

3.2.12. O‘quv kurslarida olgan bilimlaridan noqonuniy yoki axloqqa zid maqsadlarda, shu jumladan, xakerlik faoliyati, axborotga ruxsatsiz kirish, zararli dasturlarni yaratish va tarqatish, intellektual mulk huquqlarini buzish uchun foydalanmaslik.

4. BUYURTMACHIGA TAQDIM ETILADIGAN QO'SHIMCHA IMTIYOZLAR

4.1. Buyurtmachiga quyidagi qo’shimcha imtiyozlar taqdim etilishi mumkin:

4.1.1. Ta’lim xizmatlari ko’rsatiladigan hududda Kurs shartlarida belgilangan hajmda Internet trafik;

4.1.2. Ta’lim xizmatlari ko’rsatiladigan hududda joylashgan co-working hududida bir kishilik o’rinni har kuni Kurs shartlarida belgilangan vaqt davomida band qilish imkoniyati.

4.2. Qo‘shimcha imtiyozlarning aniq hajmi va tartibi kurs turiga va filialga qarab farqlanishi mumkin hamda Ijrochining rasmiy veb-sayti va platformalarida e’lon qilinadi.

5. XIZMATLAR NARXLARI, SHARTLARI VA ULARNI TO'LASH TARTIBI

5.1. Xizmatlar narxi Buyurtmachi tanlagan kurs va to‘lov uslubiga qarab Ijrochining rasmiy veb-sayti, mobil ilovasi va boshqa rasmiy platformalarida e’lon qilingan Kurs shartlariga muvofiq belgilanadi. Kurs qismlarga bo’lib sotiladigan o’quv oylaridan iborat. Bir o‘quv oyidagi darslar soni va bir darsning davomiyligi Kurs shartlarida ko‘rsatiladi.

5.2. To‘lov Buyurtmachi tanlagan to‘lov uslubiga qarab quyidagi muddatlarda har qanday qonuniy to'lov shaklida amalga oshiriladi:

5.2.1. oyma-oy to‘lov uslubida: har bir o‘quv oyi uchun to‘lov ushbu o‘quv oyining birinchi darsi boshlanishidan oldin;

5.2.2. ikkiga bo‘lib to‘lash uslubida: kurs umumiy narxining 50% (ellik foizi) birinchi dars boshlanishidan oldin, qolgan 50% (ellik foizi) kursning ikkinchi yarmidagi birinchi dars boshlanishidan oldin;

5.2.3. bittada to‘lov uslubida: kurs umumiy narxining 100% (yuz foizi) birinchi dars boshlanishidan oldin.

5.3. Har bir kurs uchun qaysi to‘lov uslublari mavjudligi Kurs shartlarida ko‘rsatiladi. Ijrochi muayyan kurs uchun ayrim to‘lov uslublarini taklif qilmasligi mumkin.

5.4. Ijara narxlarining keskin ko'tarilishi, soliqqa oid qonunchilikning o'zgarishi yoki milliy valyutaning keskin qadrsizlanishi kabi Ijrochi ixtiyoridan tashqarida bo'lgan holatlar yuz berganda kurs narxi Ijrochi tomonidan 20% dan ko'p bo'lmagan miqdorda oshirilishi mumkin. Narx oshirilishi haqida Buyurtmachi shaxsiy kabinet, SMS yoki Ijrochining rasmiy veb-sayti orqali oldindan xabardor qilinadi. Buyurtmachi oshirilgan narx bo‘yicha o‘qishni davom ettirishni istamasa, Shartnoma bekor qilinadi va to‘lov 6.7-bandda belgilangan tartibda qaytariladi.

5.5. Bittada to'lov uslubida to’lov to’liq amalga oshirilgandan so'ng kurs narxi Buyurtmachi uchun, shu jumladan 5.4-bandda ko‘rsatilgan holatlar yuz berganda ham, o’zgarishsiz qoladi. Agar oyma-oy yoki ikkiga bo'lib to'lov uslubi tanlangan bo'lsa, to'lab bo'lingan muddat uchun kurs narxi o'zgarishsiz qoladi. Kurs shartlarida e’lon qilingan narxlarning keyinchalik o‘zgarishi, 5.4-bandda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, ilgari tuzilgan Shartnomalarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

5.6. Shartnoma tuzilgach, kurs boshlanguncha yoki boshlangandan keyin ta'lim xizmatini ko'rsatish Buyurtmachi tomonidan ma’lum muddatga muzlatilsa va Buyurtmachi ta'limni davom ettirish uchun qayta murojaat qilgan paytda kurs narxi o'zgargan bo'lsa, Buyurtmachi o’zgargan narxdagi farqni to’laydi.

5.7. Buyurtmachi birinchi o’quv oyi uchun 3-darsga, keyingi o’quv oylari uchun esa har bir o‘quv oyining 1-darsiga qatnashish orqali mazkur o’quv oyi uchun ta’lim xizmatlarini to’liq xarid qilgan hisoblanadi.

5.8. Agar Buyurtmachi oyma-oy to’lov uslubini tanlagan holda Shartnoma tuzsa va kurs davomida bittada to’lov uslubiga o‘tishga qaror qilsa, xizmat ko’rsatib bo’lingan muddat uchun to’lov qayta hisoblanmaydi va Buyurtmachi yangi o’quv oyidan boshlab qolgan muddat uchun Kurs shartlariga ko’ra qo’shimcha to’lovni amalga oshiradi. Agar Buyurtmachi bittada to’lov uslubini tanlagan bo’lsa, kurs boshlangach oyma-oy to’lov uslubiga o‘tishga ruxsat berilmaydi.

6. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH UCHUN ASOSLAR

6.1. Ijrochi Oferta shartlariga o‘zgartirish kiritishga haqli. O‘zgartirishlar Ofertaning yangi tahriri Ijrochining rasmiy veb-saytida e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va shu kundan keyin aksept qilingan Shartnomalarga nisbatan qo‘llaniladi. Ilgari tuzilgan Shartnomalar shartlari Buyurtmachining roziligi bilan o‘zgartiriladi, bundan 5.4-bandda nazarda tutilgan hollar mustasno.

6.2. Shartnoma Buyurtmachining iltimosiga binoan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Bu haqida Buyurtmachi Shartnoma bekor qilinishi kutilayotgan sanadan kamida 7 ish kuni oldin yoki yangi o’quv oyi boshlanishidan avval filial menejeriga yozma ravishda xabar berishi lozim.

6.3. Shartnoma Ijrochining tashabbusi bilan quyidagi hollarda bir tomonlama bekor qilinishi mumkin:

6.3.1. Buyurtmachi tomonidan to'lov o'quv oyining 2-darsigacha amalga oshirilmaganda;

6.3.2. Buyurtmachining 3.2.3, 3.2.4, 3.2.9-bandlardagi harakatlari (yoki harakatsizligi) natijasida Ijrochi ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarini to'g'ri bajara olmaganda;

6.3.3. Buyurtmachi tomonidan 3.2.7, 3.2.8, 3.2.9-bandlar qoidalari takroran buzilganda;

6.3.4. Buyurtmachi o’zi tanlagan yo’nalish doirasida o’tish balini to’play olmaslik, uy vazifa qilmaslik, darsga yetarlicha qatnashmaslik, imtihonga kelmaslik va boshqa shu kabi sabablarga ko’ra oraliq imtihonlardan 3 (uch) marta ketma-ket yiqilgan deb topilganda. Bunday holda Buyurtmachi ushbu kursdan chetlatiladi va Ijrochi uni ushbu kursda qayta o’qitish majburiyatini olmaydi (boshqa yo’nalishdagi kursda o’qish tavsiya qilinadi). Mazkur sabablarning aniq mezon va ko‘rsatkichlari Ijrochining ichki tartib qoidalari bilan belgilanadi;

6.3.5. Buyurtmachi 3.2.12-bandda belgilangan majburiyatlarni buzganda.

6.4. Buyurtmachining tashabbusi bilan Shartnomani bekor qilish uchun Buyurtmachi filiallardan biriga tashrif buyurib, filial menejeriga murojaat qiladi va tegishli so’rovnomani to’ldiradi.

6.5. Buyurtmachining tashabbusi bilan Shartnomani bekor qilishga faqat yangi o’quv oyi boshlanishidan avval yo’l qo’yiladi. Tugatilmagan o’quv oyi davomida Shartnoma Buyurtmachi tashabbusi bilan bekor qilingan taqdirda 5.7-bandga asosan mazkur o’quv oyi uchun ta’lim xizmatlari Buyurtmachi tomonidan xarid qilingan deb hisoblanadi va tugatilmagan oydagi qatnashmagan darslar uchun to’lov qaytarilmaydi.

6.6. 6.5-bandda keltirilgan qoidadan birinchi o’quv oyi mustasno. Buyurtmachi birinchi o’quv oyining 3-darsi boshlanishigacha bo’lgan muddatda Shartnomani bekor qilish va 100% to’lovni qaytarib olish huquqiga ega. 3-dars boshlanguncha Shartnomani bekor qilmagan Buyurtmachi 100% to’lovni qaytarib olish huquqini yo’qotadi.

6.7. Buyurtmachining tashabbusi bilan Shartnoma bekor qilingandan so'ng, Ijrochi Buyurtmachiga ushbu Shartnoma bo'yicha ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati va majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq haqiqatda qilingan xarajatlarni chegirib tashlagan holda, Shartnoma bekor qilingan kundan boshlab 30 (o’ttiz) bank kuni ichida to'lov miqdorini plastik karta orqali qaytaradi.

6.8. Agar ta'lim xizmatlarini ko’rsatishda kamchiliklar aniqlansa yoki Ijrochi xizmat ko'rsatish shartlarini (xizmatni ko'rsatish boshlanishi va (yoki) tugashi shartlarini) buzgan bo'lsa, Buyurtmachi o’z tanloviga ko’ra ko'rsatilgan xizmat bo’yicha kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilishga yoki, agar xizmat kamchiliklari 7 (yetti) kun ichida Ijrochi tomonidan bartaraf etilmasa,

Shartnomani bajarishni rad etib, o’tilmagan darslar uchun to'lov miqdorini qaytarishni talab qilishga haqli.

6.9. Kursning umumiy to’lovi ikkiga bo‘lib yoki bittada to‘lov uslubida oldindan 50% yoki 100% to'langan holatda, Shartnoma 4-o’quv oyining 1-darsi boshlanguncha bo’lgan muddatda bir yoki ikki tomonning tashabbusiga ko’ra bekor qilinsa, ko’rsatilgan ta’lim xizmatlarining narxi Kurs shartlarida belgilangan oyma-oy to’lov uslubi narxiga ko’ra hisoblanadi va ortib qolgan summa Buyurtmachiga qaytarib beriladi.

7. IJROCHI VA BUYURTMACHINING JAVOBGARLIGI

7.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar Shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7.2. Kurs mobaynida oraliq nazorat yoki yakuniy imtihonlardan o‘ta olmagan, darslarni yaxshi o‘zlashtira olmagan o‘quvchilar tegishli o'quv oyi yoki oylarini qayta o‘qish istagida bo'lsa, qayta o'qilayotgan muddat uchun to'lov oyma-oy to’lov shaklida qabul qilinadi. Bunda birinchi marta qayta o'qiganda oyma-oy to‘lov narxining 60% ini to'lagan holda qayta o'qishga ruxsat etiladi. Qayta o’qish holati bir martadan oshganda chegirma taqdim etilmaydi.

7.3. Buyurtmachi 3.2.12-bandda nazarda tutilgan xatti-harakatlarni sodir etganligi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi va Ijrochiga bunday harakatlar oqibatida yetkazilgan zararni qoplab beradi.

8. SHARTNOMANING MUDDATI

8.1. Shartnoma Buyurtmachi tomonidan Oferta aksept qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va 365 kalendar kuni davomida, Shartnoma bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilguncha yoki Shartnoma tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan muddatidan avval tugatilgunga qadar amal qiladi. Bu muddat ichida tomonlardan biri o'z majburiyatlarini to'liq bajarib tugatmasa, qo’shimcha shartnoma tuziladi.

8.2. Oferta Ijrochi tomonidan chaqirib olingunga yoki uning yangi tahriri e’lon qilingunga qadar amal qiladi. Ofertaning chaqirib olinishi yoki yangi tahririning e’lon qilinishi undan oldin tuzilgan Shartnomalarning amal qilishini to‘xtatmaydi.

9. FORS-MAJOR VA BOSHQA HOLATLAR

9.1. Tomonlar Shartnoma tuzilgandan keyin oldindan ko'ra bilmagan va oqilona choralar bilan to'sqinlik qila olmagan holda yuzaga kelgan favqulodda hodisalar natijasida Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Favqulodda xarakterga ega bo'lgan bunday hodisalarga quyidagilar kiradi: embargo, epidemiya, zilzila, yong'in, toshqin va boshqa tabiiy hodisalar, davlat organlari tomonidan yangi qonun hujjatlari, qonun osti ko'rsatmalar, qoidalar, xatlar qabul qilinishi, shuningdek, hokimiyat organlarining aralashuvi yoki taqiqlovchi harakatlari. Bunday holda Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati holatlar va ularning oqibatlari davomiyligiga mutanosib ravishda keyinga qoldiriladi.

9.2. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan tomon yuqoridagi holatlarning paydo bo'lishi, kutilayotgan davomiyligi va tugashi to'g'risida boshqa tomonga 5 kalendar kuni ichida xabar beradi.

9.3. Agar ko'rsatilgan holatlar va ularning oqibatlari ketma-ket 1 (bir) oydan ko'proq vaqt davom etsa, tomonlar xizmat ko'rsatishning onlayn rejimiga o'tadilar yoki Shartnomani bajarish yoki uni bekor qilishning muqobil usullarini aniqlash uchun qo'shimcha muzokaralar o'tkazadilar. Agar majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarish imkonsizligi 2 (ikki) oydan ko'proq vaqt davomida mavjud bo'lsa, Ijrochi Buyurtmachining mumkin bo'lgan zararlarini (shu jumladan xarajatlarini) qoplash majburiyatini olmasdan Shartnomani to'liq yoki qisman bekor qilishga haqlidir.

9.4. Tomonlar Buyurtmachining to'lovga qodir emasligi fors-major holati emasligini tan olishadi.

10. NIZOLARNI HAL ETISH

10.1. Shartnoma bo‘yicha vujudga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlar tomonidan Ijrochining ichki hujjatlarida belgilangan tartibda, shu jumladan o‘zaro muzokaralar (sulh) o‘tkazish orqali hal etiladi.

10.2. Agar nizoni muzokaralar yo’li bilan hal etish imkonsiz bo’lsa yoki tomonlar sulh asosida kelishuvga erisha olmasalar, tomonlar nizoni hal qilish uchun Ijrochi joylashgan hududdagi vakolatli sudiga murojaat qiladi. Ushbu sudning qarori tomonlar uchun yakuniy hisoblanadi.

11. BOSHQA QOIDALAR

11.1. Xizmatlar tugagandan so'ng ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risida dalolatnoma yoki qabul qilish akti tuzilmaydi va imzolanmaydi. Oxirgi pullik ta’lim xizmati tugaganidan keyin 7 ish kuni ichida Buyurtmachi tomonidan ta’lim xizmati sifati to'g'risida yozma ravishda e'tiroz kelib tushmagan bo'lsa, xizmatlar Ijrochi tomonidan to'g'ri va to'liq taqdim etilgan deb hisoblanadi.

11.2. Ushbu Ofertada qayd etilmagan boshqa barcha holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qoidalari va normalarini qo'llaydilar.

11.3. O'quvchining ota-onasi yoki qonuniy vakili Ofertani aksept qilishda (ro‘yxatdan o‘tishda) ko‘rsatilgan telefon raqamlari orqali Ijrochining Aloqa Markaziga (+998-78-888-9-888) so’rov kelib tushgan o’rinlarda o‘quvchining bilimi va o’zlashtirishi to‘g‘risida Ijrochi tasarrufida mavjud bo’lgan ma’lumotlar bilan tanishtirilishiga rozilik bildiradi.

11.4. Oferta elektron shaklda tuziladi va Ijrochining rasmiy veb-saytida doimiy ravishda joylashtiriladi. Buyurtmachi aksept qilgan paytdagi Oferta matnini va tanlangan kurs bo‘yicha Kurs shartlarini yuklab olishi yoki Ijrochidan ularning nusxasini talab qilishi mumkin. Shartnoma qog‘oz shaklida alohida imzolanishini talab qilmaydi.

12. IJROCHINING MANZILI VA REKVIZITLARI

IJROCHI: «Najot Ta'lim» MCHJ
Manzil: Toshkent shahar, Olmazor tumani, Kichik halqa yo'li, 72A uy.
H/R: 20208000300908346001, "O'zsanoatqurilishbank" ATB Toshkent shahar filiali
MFO: 00440 INN: 305672632 OKED: 85590 Tel: +998 78 888 98 88

Rahbar: A.B.Adhamjonov

M.O'

NAJOT TA'LIM MARKAZI

Mazkur Oferta O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq elektron shaklda e'lon qilingan. Ofertaning elektron shaklda aksept qilinishi (shu jumladan shaxsiy kabinetda tasdiqlash, SMS-kod yoki to'lov orqali) Buyurtmachining roziligini ifodalaydi va qog'oz shaklda imzolangan shartnomaga tenglashtiriladi.